



SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASH TIZIMI

Xidirov Temur Qahramon o'g'li

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, katta leytenant

E-mail: xidirov_temur@mail.ru

Tel: +99894-658-79-03

Annotatsiya. Ushbu maqolada sutni qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash tizimi, zamonaviy KPI tizimi asosida yangi baholash mezonlari, mamlakatimizdagi sutni qayta ishlash korxonalariga zamonaviy KPI tizimini joriy etishning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari, KPI tizimini rivojlantirishga qaratilgan mamlakatimizdagi islohotlar hamda xalqaro indekslarni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan amalga oshiriladigan dolzarb masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sutni qayta ishlash korxonalarida, iqtisodiy samaradorlik, zamonaviy KPI tizimi, baholash mezonlari, xalqaro indekslar va milliy islohotlar, davlat fuqarolik xizmati, umumiy samaradorlik ko'rsatkichi.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения изложены система оценки экономической эффективности на молокоперерабатывающих предприятиях, новые критерии оценки на основе современной системы KPI, основные показатели эффективности внедрения современной системы KPI на молокоперерабатывающих предприятиях нашей страны, реформы в нашей стране, направленные на развитие системы KPI, а также актуальные вопросы внедрения международных индексов на практике.

Ключевые слова: молокоперерабатывающие предприятия, экономическая эффективность, современная система ключевых показателей эффективности, критерии оценки, международные индексы и национальные реформы, государственная гражданская служба, общий показатель эффективности.

Annotation. This article scientifically describes the system for assessing economic efficiency in milk processing enterprises, new assessment criteria based on the modern KPI system, the main performance indicators for introducing a modern KPI system to milk processing enterprises in our country, reforms in our country aimed at developing the KPI system, and current issues related to the implementation of international indices in practice.

Key words: milk processing enterprises, economic efficiency, modern KPI system, evaluation criteria, international indices and national reforms, state civil service, overall performance indicator.

KIRISH

O'zbekistonda aholi iste'mol uchun birlamchi bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan go'sht va sut mahsulotlarini xarid qilishga bo'lgan talabni kun



sayin ortib borayotganligi, sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmini yanada oshirishga turtki bo‘lmoqda. Aholini sut mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun sutni qayta ishlash korxonalaridagi ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, qayta ishlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy klaster tizimi asosida rivojlantirish hamda iqtisodiy samaradorligini baholash imkoniyatiga ega bo‘lgan zamonaviy baholash tizimlarini amaliyotga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun sutni qayta ishlash korxonalaridagi iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida, zamonaviy baholash tizimini joriy etish lozimdir. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalaridagi iqtisodiy samaradorlikni aniqlash hamda uni baholashda keng qo‘llanib kelinayotgan KPI (Key Performance Indicators) tizimi dunyo miqyosida iqtisodiy samaradorlikni baholashda eng muhim bo‘lgan zamonaviy tizimlardan biri hisoblanadi. Sutni qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash bo‘yicha, aniq samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan hamda innovatsion dasturga asoslangan KPI baholash tizimidan foydalanish masalasi tatbiq etilmagan. Sutni qayta ishlash korxonalarida KPI baholash tizimidan samarali foydalanishda KPI tizimining afzalliklari hamda uning imkoniyatlari to‘g‘risida sutni qayta ishlash korxonalarini uchun zamonaviy qo‘llanmalar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish tadqiqot ishining ilmiy natijalaridan biri hisoblanadi. Samaradorlikni baholash ko‘rsatkichi tizimida korxonalar menejmenti va xodimlari faoliyati sonlar orqali o‘lchanadi. Indikatorlar bo‘yicha hisobot tayyorlangach, rejalashtirilgan maqsadga qanchalik darajada erishilganligini, rejalar qay darajada aniq va to‘g‘ri qo‘yilganligini baholash mumkin. Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari natijasi strategik va taktik maqsadlarga tuzatishlar kiritishga ko‘mak beradi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida joylarda ijro va vakillik organlarining davlat boshqaruvidagi roli va mas‘uliyatini yanada oshirish, vazirlik va idoralarning hududiy tuzilmalari faoliyati natijadorligini nazorat qilish bo‘yicha yangi tizim yaratish shart ekanligi aytib o‘tilgan edi. Shundan so‘ng, davlat boshqaruv organlari va tashkilotlarida ularning faoliyatini baholashga qaratilgan mezonlar ishlab chiqish, bu borada xalqaro tajribani o‘rganish hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ishlar boshlab yuborildi. Rivojlangan davlatlarning gigant kompaniyalari, korxonalar va tashkilotlarida joriy etilgan hamda o‘z samaradorligi bilan boshqaruvning boshqa texnologiyalaridan farqlanuvchi eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tizimi O‘zbekistonda

¹ <https://www.uzse.uz/boards/271>



ham ko‘plab sohalarda tadbiiq etila boshlandi. Aslida iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun yaratilgan KPI (Key Performance Indicator) - bu ma‘lum bir faoliyatda yoki muayyan maqsadlarga erishish yo‘lidagi muvaffaqiyat ko‘rsatkichidir².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5843-son Farmoniga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmatini yanada rivojlantirishda zamonaviy KPI baholash tizimidan samarali foydalanish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Natijada esa davlat fuqarolik xizmatida ham KPI baholash tizimidan samarali foydalanish imkoniyati yuzaga keldi. Ammo, sutni qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniq baholaydigan yanoga tizim mavjud emas. Tadqiqot ishi orqali, aynan sutni qayta ishlash korxonalarida samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashning zamonaviy tizimlaridan biri bo‘lgan KPI baholash tizimini joriy etish ilmiy ishimizning yana bir muhim natajasi hisoblanadi. Quyidagi 1-rasmda, sutni qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniq baholash imkoniyatiga ega bo‘lgan zamonaviy KPI tizimini joriy etishning asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ko‘rsatib o‘tilgan.



1-rasm. Sutni qayta ishlash korxonalarida zamonaviy KPI tizimini joriy etishning asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari³

² <https://jizzax.uz/4617-davlat-organlari-faoliyati-samaradorligini-oshirishamon-dolzarb-masala.html>

³ Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.



Mazkur 1-rasmdan ko‘rinadiki, sutni qayta ishlash korxonalarida zamonaviy KPI tizimini joriy etish uchun quyidagi asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini amaliyotga tatbiq etish lozimdir. Yuqoridagi rasmda berilgan 9 ta eng asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining jamlanmasi zamonaviy KPI tizimini tashkil etadi. Sutni qayta ishlash qorxonalarida iqtisodiy samaradorlik miqdorini KPI tizimi asosida baholash mezonlari quyidagi 2-rasmda ko‘rsatilgan o‘tilgan.



2-rasm. Sutni qayta ishlash qorxonalarida iqtisodiy samaradorlik miqdorini KPI tizimi asosida baholash mezonlari⁴

Ushbu 2-rasmdan ko‘rinadiki, sutni qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlik miqdorini aniqlashda KPI tizimi asosida baholashning yangi mezonlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, samaradorlikni umumiy miqdoriga qarab uning darajasi qanday bo‘lishi tahlil qilingan. Agar korxonadagi samaradorlikni umumiy miqdori 10-20 foiz atrofida bo‘lsa, uning samaradorlik darajasi qoniqarsiz deb baholanadi. Natijada esa, bunday miqdorni qayd etilishi korxonaning samaradorligi mavjud emasligini anglatadi. Agar korxonadagi samaradorlikni umumiy miqdori 100 foizdan ortiq bo‘lsa, uning samaradorlik darajasi a‘lo deb baholanadi. Natijada esa, korxonadagi iqtisodiy samaradorlik yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-son Farmoniga ko‘ra, barcha soha va tarmoqlarda KPI tizimini rivojlantirish borasida⁵ hamda 2021-yil 24-avgustdagi “Mahalliy ijroiya

⁴ Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-son Farmoni. 2020 yil 2 iyun.-www.lex.uz



hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5230-son Qarorida ham bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) (keyingi o'rinlarda samaradorlik ko'rsatkichlari) asosida baholash tartibini joriy etish belgilangan. Rahbar o'rinbosarlarining samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi natijalarini baholash, tegishli o'rinbosarning samaradorlik ko'rsatkichlarining har biri uchun olingan foizlarni qo'shish yo'li bilan o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlari orqali hisoblab chiqariladigan hamda quyidagi formulaga asosan aniqlanadigan umumiy samaradorlik ko'rsatkichi (USK) orqali amalga oshiriladi:

$$USK = (SK_1 + SK_2 + \dots + SK_n)/N$$

Bunda, SK - samaradorlik ko'rsatkichlari, N - samaradorlik ko'rsatkichlari soni belgilaydi. Rahbar o'rinbosarlari tomonidan samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi natijalarining umumiy samaradorlik ko'rsatkichi:

70 foizdan kam ta'minlanganda - «qoniqarsiz» va 71 foizdan 90 foizgacha - «qoniqarli», 91 foizdan 99 foizgacha - «yaxshi» va 100 foiz va undan yuqori bo'lganda «a'lo» deb baholanishi belgilab berilgan⁶ bo'lib, hozirgi kunda mazkur tizimlar amaliyotda o'zining samarasini bermoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, sutni qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik o'z vaqtida baholanmasa, korxonaning samaradorligini va erishgan natijasini aniqlab bo'lmaydi. Sutni qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun zamonaviy baholash tizimlarini joriy etish va ularni amaliyotga tatbiq etish hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim vazifalar hisoblanadi.

Sutni qayta ishlash korxonalarida uchun ishlab chiqilgan KPI baholash tizimi eng yuqori darajada samara beradigan tizim hisoblanadi. Sutni qayta ishlash korxonalarida KPI baholash tizimi bo'yicha zamonaviy baholash tizimi tatbiq etilmagan bo'lib, ushbu tizimdan samarali foydalanish, ularni to'g'ri tatbiq etish hamda rivojlantirish korxonalaridagi iqtisodiy samaradorlikni baholashda yuqori darajada foyda keltiradi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5230-son Qarori. 2021 yil 24 avgust. -www.lex.uz



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni, 2019-yil 3-oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-son Farmoni. 2020 yil 2 iyun.-www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5230-son Qarori. 2021 yil 24 avgust. -www.lex.uz
4. <https://www.uzse.uz/boards/271>
5. [https://jizzax.uz/4617-davlat-organlari-faoliyati-samaradorligini-oshirisha mon-dolzarb-masala.html](https://jizzax.uz/4617-davlat-organlari-faoliyati-samaradorligini-oshirisha-mon-dolzarb-masala.html)

